



**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQ QO‘LYOZMALAR
MARKAZI FONDIDA SAQLANAYOTGAN “ARBA’IN” ASARLARI
XUSUSIDA**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq falsafasi va germenevtika kafedrasи v.b.dotsenti

Pulatova Malohat Rixsibayevna.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq falsafasi va germenevtika kafedrasи

1-kurs magistri Jalolxonov Abbosxon Sultonxon o‘g‘li

Annotatsiya: Abu Rayhon Beruniy nomli Sharq qo‘lyozmalari markazi fondida saqlanayotgan an-Navaviyning inv. №3200 raqamli hamda inv. №3294 raqamli qo‘lyozma nusxalarining tavsifi berildi.

Аннотация: В этой статье даются определение и описание рукописей, инвентарный номер которых 3200 и 3294. Эти рукописи произведений «Арбайн» принадлежат перу Шарафиддина ан Нававий и хранятся в фондах института восточных рукописей имени Абу Райхана Беруни.

Annotation: Definitions and description of manuscripts by number of inventory 3200 and 3294 are given in this article. These manuscripts of “Arbain” belong to Sharafiddin an-Navaviu and are kept in funds of Centre of Oriental Manuscripts named after Abu Rayhon Beruniy under Tashkent State Institute of Oriental Studies.

Kalit so‘z: qo‘lyozma, arba’in, kalafon, poygir, nastaliq, xattot, xattotlik.

Opornie slova: rukopis, arbain, kalofon, paygir, nastalik, palligraf, kalligrafiya.

Word combinations: manuscripts, arbain, colophone, poygir, type of letter, poligraph, calligraphy.



Islom dinining mohiyati va ahamiyati – insoniyatning botiniy va zohiriy olamini poklashdan iboratdir. Hadislarda islam dini ahkomlari, ya’ni farz, vojib, sunnat, mustahab, halol, harom, makruh, muboh kabilardan tashqari axloq, odob, ta’lim-tarbiyaga doir ko‘rsatmalar ham katta o‘rinni egallagan. Shu sababli Sharq mumtoz adabiyotida “Arba’in” yozish an’ana bo‘lgan va arba’in asarlar xalq orasida keng tarqalgan bo‘lib, sevib o‘qilgan.

Abu Rayhon Beruniy nomli instituti qo‘lyozmalar qo‘lyozmalar fondida arab, fors va turkiy tillarda yozilgan bir necha o‘nlab “Arba’in” asarlarining qo‘lyozma nusxalari va ularga yozilgan turli sharhlar saqlanmoqda. Jumladan, Muhyiddin Yahyo bin Sharofuddin an-Navaviyning (inv. № 3294-I, inv. № 2439-IV, inv. № 4079-III, inv. № 3200-III, inv. № 8124-I, inv. № 4826-I, inv. № 6437-II, inv. № 6437-III, inv. № 2131-IV, inv. № 4602-II, inv. № 6262-III, inv. № 8181-II raqamli qo‘lyozma nusxalari) “Arba’in” asari, Jalol bin Muhammad bin Ubaydulloh al-Qoyiniy al-Buxoriy al-Hiraviy (inv. № 3294-VI)ning “Arba’in fil ahloq” asari, Usfuriy Muhammad bin Abu Bakr (inv. № R:5791-VI)ning “Arba’in Usfuriy”si, Majdiddin Sharof bin al-Muyid al-Bog‘dodiyning (inv. № 3294-III) “Arba’in” asari, Abdulazim al-Qaviy bin Abdullah al-Mahtadiyning (inv. № 4990-III) “Arba’in fil ahloq”, Muhammad Nomrodning (inv. № 12184-II, 12184-III) “Chil hadis manzuma”si, Abu Tohir Muhammad bin Hasan Aliy Ushiyning (inv. № 12484-II) “Arba’in hadisan”, Sayid Ahmad Vasliy Samarqandiyning (inv. № 10337-II) “Chihil hadis” va Muhammad al-Jazariy ash-Shofiyning (inv. № 522-II) “Arba’in masoil”, Abduljalil ibn Muhammad Ibrohimning (inv. № 5937-I) “Chihil hadis tarjimasi”, Ash-Shayx Muhammad al-Omosaviyning (inv. № 5715) “Arba’in al-mavsum bi shifai al-qulub” asari, **Amir Sayid (bin) Aliy Shahob Hamadoniyning (inv. № 12613-XXV)** “Chihil hadis dar sifat fuqaro” va (inv. № 12613-XXVI) “Arba’in al-Oliy”, (inv. № 12613-XXVII, inv. № 480-XXX) “Chihil hadis” asarlari, shuningdek, **Abdullatif bin Shayx Sulaymon Turbatiyning (inv. № 11587-V)** “Chil hadis manzuma” asari, **Mir Shayx ibn Nuriddin Muhammad Puroniyning (inv. № 4535-II, inv. № 4535-III, inv. № 3636-III, inv. № 3636-VI, inv. № 3636-VII)** “Chil hadis” asari hamda Muhayyir va Puroniyning (inv. № 682-II) “Chil hadis” asarlari va ularning bir



necha nusxalarda mavjud. Shu bilan birga muallifi noma'lum arba'inlar ham talaygina.

Arba'in asarlari nusxalari ichida **Muhyiddin Yahyo bin Sharofuddin an-Navaviyning "Arba'in"** asari turli davrlarda turli xattotlar tomonidan eng ko'p ko'chirilgan asar ekanligi aniqlandi. Shu sababli ushbu maqolamizda Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzuridagi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharq qo'lyozmalari markazi fondida saqlanayotgan an-**Navaviyning inv. №3200 raqamli va inv. №3294 raqamli qo'lyozma nusxalarining tavsifini berishni maqsad qildik.**

محى الدين يحيى بن شرف الدين النووي – Mashhur islom olimi, hofiz, faqih, muhaddis **Muhyiddin Yahyo bin Sharofuddin an-Navaviy 631/1233 yil** Damashqdagi Navo shahrida tug'ilgan. U 19 yoshidan Damashqning “Ravohiya” madrasasida zamonasining eng mashhur olimlaridan fiqh, hadis, usul kabi turli ilmlarni egallagan. Shuningdek, 665 yildan Damashqning “Dorul hadis al-Ashrafiya” madrasasida dars bergen. Uning 20dan ortiq yozgan kitoblari bor. **Sharofuddin an-Navaviy 676/1278 yil** Damashqdagi Navo shahrida vafot etgan¹.

Sharq qo'lyozmalari institutining asosiy fondida inv. № 3200-III raqami ostida saqlanayotgan **Sharofuddin an-Navaviyning "الاربعين النووي"** – "al-Arba'in an-Navaviy" asari e'tiborli, to'liq va qadimiy qo'lyozma nusxalardan hisoblanadi. Asarning yozilgan yili noma'lum.

Navaviy bu asarni yaratishdan ko'zlagan maqsadi haqida asar muqaddimasida shunday yozadi: “Qirq hadis” yozgan olimlarning ba’zilari aqoidga oid, dinning turli masalalari – zuhd, odob, nasihat va boshqa mavzudagi hadislarni to‘plashgan. Ularning barchasi juda go‘zal yozilgan. Alloh ulardan rozi bo‘lsin. Men esa bu mavzularning hammasidan ham muhimroq bo‘lgan bir mavzuda qirq hadis to‘plashni ma’qul ko‘rdim. Ya’ni, bu kitob ana shu mavzularning barchasini o‘z ichiga jamlashi lozim. Undagi hadislarning barchasi dinning eng buyuk asoslaridan, olimlar

¹ Қаранг: А.б.Халидов. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция.–М.,1985г. Стр.-75-76., Абу Закариё Яхё ибн Шараф Нававий. Риёз ус-солихин. –Т.,2006.



islomning tamali deb qabul qilgan yoki islomning yarmi yoki uchdan biri, deb e'tirof etilgan masalalarni ta'riflaydigan masalalardir.

Tanlangan 40 hadisning barchasi sahih bo'lishiga e'tibor berdim. Bu hadislarning aksariyati Imom Buxoriy va Imom Muslimning sahihlarida mavjud...”².

Ko'rindiki, Sharqda “arba'in” asar yozish, ya'ni 40 ta hadisni bir yerga jamlab, uning ma'nosini oddiy xalqqa tushuntirib berish, unga sharh yozish an'ana bo'lgan. Har bir davrning o'z “Arba'in”lari mavjud bo'lib, ularda aniq mavzu va maqsad ilgari surilgan. Arba'indagi hadislarning barchasi sahih hadislar bo'lishligiga va isnodga e'tibor qaratilgan.

Inv.№ 3200 raqamli qo'lyozma nusxa majmua bo'lib, u Muhammad al-Jazariy ash-Shofii ning (inv.№3200-I) محمد بن محمد بن جعفر الشافعي الحسن المرسلين (inv.№3200-II) – الحسين من كلام سيد Al-Hasin ul-hasiyn min kalam sayyid al-mursaliyn (sahifa) asari, (inv.№3200-III) مفتاح الحسن الحسين Miftah ul-hasin ul-hasiyn (sahifa) asarlari va (inv.№3200-IV) ابن عيسى محمد سورة الامام الترمذى – شمائل النبي Shamoil an-nabiy (23-102 sahifa) asari bilan bir muqovaga olinib, yaxlit kitobot qilingan.

Majmuadagi to'rtta asarni ham kotib Ashraf bin Muhammad at-Tabib al-Kirmoniy أشرف بن محمد الطبيب الكرمني hijriy 908 va 939 (milodiy 1532-1533) yillarda Xirot هرة da ko'chirgan. Kitobning avvalida Samarqand qog'ozidan tavziya varaqlari, ya'ni 8 varaq kotib uchun bo'sh qoldirilgan. Kitobning 1a va 102a varaqlarida yassi shaklli muhr bosilgan bo'lib, unda “Mir Alauddin ibn Xalifa Jaloluddin 1265” مير علاء الدين بن خليفه جلال الدين 1265 degan yozuv bor. Muhr kitob egasini bo'lishi mumkin.

Biz tadqiq ostiga olgan №3200-III raqamli “Arba'in an-Navaviy” asarining tarkibi 42 ta hadisdan iborat.

Boshlanishi: (90 a sahifa)

بِسْمِ اللَّهِ رَبِّ الْعَالَمِينَ قَيْوَمُ السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضَيْنِ مَدْبُرُ الْخَلَقِ
أَجْمَعِينَ بَاعْصَ الرَّسُولَ صَلَوَاتُ اللَّهِ إِلَيْهِ الْمَكْفُونَ لَهُدَىٰتِهِمْ...

Oxiri: (101 b sahifa)

²Имом Мухиддин Закариё ibn Шараф Нававий. Қирқ ҳадис. – Т.,2005.



و تضمنت مالا تحصى من انواع العلوم فى الاصول
و الفروع و الاداب و ساير وجوه الاحكام.

Qo‘lyozma qalin jigarrang Sharq qog‘ozи. Matn qora siyohda mayda nafis nasx xatida yozilgan, hadislар turli rangdagi siyoh bilan raqamlab borilgan. Bunda hadislarning ma’no-mohiyatini alohida ta’kidlash maqsadida ranglar orqali nafosatli ishora qilingan. Har sahifada bir ustunli 15 yo‘l. 90 b sahifa kichik lavhali. Peshtoqiga tilla suvi bilan zarhal bezak berilgan. Jadvalga olingan. Hoshiyada mazmun to‘ldirishlari bor. Poygir alomatlari izchil. Asar oxirida kalafon bor. Qo‘lyozma yaxshi saqlangan.

Varaqlar soni – 11 (91-101). Matn o‘lchovi – 12,5x7,5. Qo‘lyozma o‘lchovi – 18x13,5.

Keyingi e’tiborli nusxa inv. №3294 **raqamli qo‘lyozma majmua bo‘lib**, uchta “Arba’in” asarlari jamlangan. Unda inv. № 3294-I **raqami ostida Muhyiddin Yahyo bin Sharofuddin an-Navaviy** – محى الدين يحيى بن شرف الدين النووي – ning asari (1-10 sahifa), **inv.№3294-III raqami ostida Majdiddin Sharaf bin al-Mu’iddin al-Bog‘dodiy** ning asari (18-17 sahifa) va **inv.№3294-VI raqami ostida Jalol bin Muhammad bin Ubaydulloh al-Qoyiniy al-Buxoriy al-Hiraviy** جلال بن محمد بن عبد الله القانيي البخاري ning asar (36-38 sahifa)lari mavjud, bu uchta arba’in asarlardagi hadislар bir-birini takrorlamaydi va ular alohida asarlar sanaladi.

Shuningdek, ushbu majmua (36-38 sahifa) **وصية الامام الاعظم** (36-38 sahifa), **رسالة مشتملة براجازة** (36-38 sahifa), **احاديث** (36-38 sahifa), **رسالة في ادب المتعلمين**, (36-38 sahifa) من كيمياء سعادت , من تفسير ابو الليث, (36-38 sahifa), **رسالة في بيان تعریفات**, (36-38 sahifa) الرسالة البرهانیه , حاشیة أداب المناظرہ, (36-38 sahifa), **حاشیة**, (36-38 sahifa) شرح أداب المناظرة السمرقندی, (36-38 sahifa), **الالفاظ الواردة بين المناظرين** (36-38 sahifa), **شرح أداب المناظرة** , حاشیة , (36-38 sahifa) علي حاشیة شرح أداب المناظرة السمرقندی (36-38 sahifa), **أدب المناظرة العضدية**, (36-38 sahifa) شرح أداب العضدية, (36-38 sahifa) **جامع الفنون** و, (36-38 sahifa) **حاشیة شرح**, (36-38 sahifa) ترجمه دوازده آیة از تورات أداب مناظرة, (36-38 sahifa) قامع الظنون (36-38 sahifa) **أدب العضدية** (36-38 sahifa) kabi asarlar bilan kitobot qilingan.



inv. №3294-I raqamli qo‘lyozma Muhyiddin Yahyo bin Sharofuddin an-Navaviy – كتاب الأربعين حديثا ning محي الدين يحيى بن شرف الدين النووي – Kitob al-Arba’in hadisan”asari arab tilida. Buxoriy va Muslim hadislaridan 42 tasi jamlangan. Inv. №3200-III raqamli qo‘lyozma nusxa bilan deyarli bir xil.

Asar an’anaviy basmaladan keyin boshlanadi.

Boshlanishi: (1sahifa)

بِسْمِ... الْحَمْدُ لِلّٰهِ رَبِّ الْعُلَمَاءِ قِيمُ السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضَيْنِ مدبرُ الْخَلَقِ
اجمعين باعس الرسول صلوته وسلم عليهم الى المكافئين لهدايتهم...
اما بعد عن علي بن طالب...الخ

Oxiri: (10sahifa)

قال الله تبارك و تعالى في حقى و ما ينطق عن الهوى ان
هو اوحى يوحى والله الحمد اولا و اخرا باطننا و ظاهرنا عليه

Qo‘lyozmaning ko‘chirilgan sana va kotibi nomalum. Belgilaridan XV asrga ta’luqli.

Matndagi xatolar xoshiyada tuzatilgan.

Poygir alomatlari mukammal.

Sarg‘ish qalin Qo‘qon qog‘ozi.

Matn qora siyohda, hadislar qizil siyohda bitilgan. Yirik, ravon, suls elementlaridan iborat chiroylar nasx xatida yozilgan bo‘lib, har sahifada bir ustunli 15 yo‘l. Jadval ichiga olinmagan.

4-va 7-varaqlar yo‘q. Oxirgi 2 varaq uringanligini aytmaganda, qo‘lyozma yaxshi saqlangan.

Dastlabki, ya’ni ta’mirlanmagan, qalin charqli, o‘yma naqshli, to‘q yashil rangdagi muqova.

Varaqlar soni – 9 (10-1). Qo‘lyozma o‘lchovi – 13x8,5. Matn o‘lchovi – 18,5x13,5.

Majmua tarkibidagi ikkinchi inv.№3294-III raqami arba’in asari
مَجْدُ الدِّينِ شَرْفُ بْنِ الْمَؤْيدِ – Majdiddin Sharif bin Muyiddin al-Bog‘dodiy –
البغدادي. Bu qo‘lyozma e’tiborli, qadimiy nusxalardan biri hisoblanadi. Boshqa



الاربعين في الاحلاق VI-3294 va inv. №3294- VI كتاب الأربعين حديثاً “Arba’in” asarlari (inv. № 3294-) bilan birga kitobat qilingan.

Qo‘lyozma arab tilida. Tarkibi: 45 ta hadisdan iborat. Matn qora siyoh bilan nimnasx xatida yozilgan, hadislар raqamlangan bo‘lib, qisqa-qisqa hadislар keltirilgan, har sahifada bir ustunli 15 yo‘l.

Boshlanishi: (17a sahifa)

بسم... هذا الأربعين حديثاً جمعها الشیخ الشهید مجد الملة و الدين
شرف بن المؤذن البغدادي رحم الله عليه أليس الخبر كالمعانیة...

Oxiri: (18b sahifa)

السفر قطع منانا الخ.
خير الرد التقوى تمت.

Qo‘lyozmaning ko‘chirilgan sana va kotibi nomalum. Belgilaridan XV asrga ta’luqli

Nuqson siz. Hoshiyada kotibning tuzatishlari va to‘ldirishlari bor. Qo‘lyozma yaxshi saqlangan.

Poygir bor. Varaqlar soni – 2 (17-18). Matn o‘lchovi – 12,5x7,5. Qo‘lyozma o‘lchovi – 18,5x13,5.

Dastlabki, qalin charmli, o‘yma naqshli, to‘q yashil rangdagi muqova.

Shuningdek, ushbu majmua tarkibiga kirgan uchinchi arba’in inv. 3294-VI raqamli qo‘lyozma nusxa bo‘lib, **Jalol bin Muhammad bin Ubaydulloh al-Qoyiniy al-Buxoriy al-Hiraviy ning** جلال بن محمد بن عبد الله القانيي البخاري الھروي – اربعين في الاحلاق – ahloq asari. Bu qo‘lyozma e’tiborli, qadimiy nusxalardan biri hisoblanadi. Boshqa “Arba’in” asarlar (inv. №3294-I va inv. №3294-III) bilan birga kitobat qilingan.

Qo‘lyozma arab tilida. Tarkibi: 40 ta hadisdan iborat.

Boshlanishi: (36a sahifa)

الحمد لله جعل قلوب العارفين او اوعية المحبة ...

و قلوب المحسنين او عية الشوق و قلوب المستاقين او عية الانسان

Oxiri: (38b sahifa)

عن معاز بن جبل رضي الله عنه قال قلت يا رسول الله



اوочни قال алға айнама токон иштеп сибие үснене тұмхана

Qo‘lyozmaning ko‘chirilgan sana va kotibi nomalum. Belgilaridan XV asrga ta’luqli.

Matn qora siyohda nastaliq xatida yozilgan bo‘lib, hadislar qizil siyoh bilan raqamlangan, har sahifada bir ustunli 14 yo‘l. Nuqsonisz. Qo‘lyozma yaxshi saqlangan.

Poygir bor.

Varaqlar soni – 3 (36-38). Matn o‘lchovi – 12,5x7,5. Qo‘lyozma o‘lchovi – 18,5x13,5.

Dastlabki, qalin charqli, o‘yma naqshli, to‘q yashil rangdagi muqova.

To‘plamdagı uchta asarning xati uch xil. Demak, bundan ma’lum bo‘ladiki, “Kitob al-Arba’in hadisan”, “al-Arba’in” va “al-Arba’in fil ahloq” ni bir vaqtning o‘zida uchta kotib ko‘chirgan va uchchala asar boshqa turli mavzudagi asarlar bilan bir muqovaga olinib yaxlit kitobot qilingan. Majmuaga jami 40 ta asar kiritilgan.

Qo‘lyozmalari fondidagi arba’in asarlarining qo‘lyozma nusxalarini ilmiy tavsiflashda shu vaqtgacha Sharq qo‘lyozmalari fondlarida tuzilgan kataloglar³ning ma’lum qoidalariga suyanildi.

Inv. №3200 raqamli qo‘lyozma kitob o‘zining bezirimligi, xatining chiroyli va dona-donaligi, xoshiya va lavxalarining zarhal bezaklarining o‘ziga xos jihatlari bilan kitobot san’atida muhim o‘rinni egallaydi.

Inv. №3294 raqamli qo‘lyozma kitob tarkibiga 40 ta turli mavzudagi asarlarning kitobot qilinishi majmuuning qiymatini yanada oshirgan. Majmua tarkibiga kiritilgan asarlarning mazmun va g‘oyasi ilmiy jihatdan o‘rganilsa XV asrning ijtimoiy-ma’naviy muhit asoslarini belgilashda yordam beradi degan umiddamiz.

Arab, fors va turkiy tillarda yozilgan “Arba’in” asarlarning 82 ta qo‘lyozma nusxalarini o‘rganib chiqdik. Kelajakda “Arba’in” qo‘lyozmalari katalogini nashr ettirish maqsadimiz bor.

³ М.Ҳакимов. Навоий асарлари құләзмаларининг тасвиғи.–Т.,1983., М.Эшмуҳамедова. Яссавий хикматлари сақланған құләзмалар каталогы. –Т.,2010.



Shu paytgacha bir necha kataloglar nashr etilgan, lekin ular yirik mavzu guruhlari bo'yicha taqsimlangan. Bugungi kunda har bir tor mavzu doirasidagi qo'lyozma sasrlarning kataloglari tuzilishi kelgusida ushbu asarlarning qiyosiy o'rghanishga yordam beradi.

Masalan, devonlarning katalogi, diniy fatvolarning katalogi, vaqf xujjatlarning katalogi—bunday tajriba ilmda mavjud. Navoiy asarlari katalogi tuzilgan, Yassaviy, Termiziylar asarlari katalogi. Bugungi kunda arba'lnarning tarbiyaviy ahamiyatini hisobga olgan holda mavjud qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan turli mavzudagi "Arba'in"larning katalogini tuzib, ularni qiyosiy o'rghanish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **Qo'lyozma inv. № 3200.**
2. **Qo'lyozma inv. № 3294.**
3. **Qo'lyozma inv. № 2669-XV.**
4. A.B.Xalidov. Arabskie rukopisi i arabskaya rukopisnaya tradisiya.—M.,1985g.
5. Abu Zakariyo Yahyo ibn Sharaf Navaviy. Riyoz us-solihin. —T., 2006.
6. Imom Muhiddin Zakariyo ibn Sharaf Navaviy. Qirq hadis. — T., 2005.
7. Katalog fonda instituta rukopisey. 1 tom. — T., 1989.
8. M.Hakimov. Navoiy asarlari qo'lyozmalarining tavsifi.—T., 1983.
9. M.Eshmuhamedova. Yassaviy xikmatlari saqlangan qo'lyozmalar katalogi.—T.,2010.
10. **Sobranie vostochnix rukopisey Akademii nauk Uzbekskoy SSSR. IV tom. —T.,1952.**